

Muzeylarga turistlarni jalb qilishda yangi innovatsiyalarning o‘rni

Sadaf Sharipova Latipovna

Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti

Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

sadafsharipova3@gmail.com

+998973033929

Annotatsiya: Maqolada dunyoda ilg‘or va har tomonlama yetakchi bo‘lgan muzeylarda qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarni o‘rni va natijalari haqida fikr yuritiladi. Unda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan muzeylarga qo‘llash va mahalliy hamda xorijiy turistlarga yaratiladigan qulayliklar, shuningdek undan kelib chiqadigan samara haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: VR, Golografik displeylar, binaural texnologiya, projection mapping, 3D-sayohatlari, xalqaro ko‘rgazmalar.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и результаты современных технологий, используемых в самых передовых и комплексных музеях мира. Рассказывается о применении к действующим в Узбекистане музеям и объектам, созданным для местных и иностранных туристов, а также о вытекающих из этого результатах.

Ключевые слова: VR, голографические дисплеи, бинауральные технологии, проекционный мэппинг, 3D-туры, международные выставки.

Abstract: The article discusses the role and results of modern technologies used in the most advanced and comprehensive museums in the world. It talks about the application to the museums operating in Uzbekistan and the facilities created for local and foreign tourists, as well as the results arising from it.

Keywords: VR, Holographic displays, binaural technology, projection mapping, 3D tours, international exhibitions.

KIRISH: Hozirgi zamonaviy dunyoda texnologiyalar yanada jadallik bilan rivojlanib bormoqda, bir so‘z bilan texnika inqilobiga yuz tutmoqda va o‘z navbatida barcha sohalarning samaradorligini oshirishga, barqaror o‘shishiga sabab bo‘lmoqda. Shundan muzey sohasini olsak mubolag‘a bo‘lmaydi, ayniqsa Kovid-19



pandimiyasi davrida yurtboshimiz tomonidan qilingan islohot va tashabbuslar o‘z natijasini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28- avgustda qabul qilingan PQ-3920-sonda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorda muzeylar infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish orqali ko‘rsatiladigan xizmatlarning interaktivligini oshirish, shu jumladan, “smart”-texnologiyalarni (axborot do‘konchalari, 3-D vizualizatsiya va gologramma, QR-kodlar, chet tillaridagi elektron gidlar va hokazolarni) joriy etish bandi berilgan. Bunga ko‘ra bir qancha samarali ishalar olib borildi, shu jumladan O‘zbekistonda asosiy madaniyat va san‘at obektlari, muzeylari, galleriyalari bo‘ylab 3D-turlar yaratiladi. Ushbu qarorda bir nechta tashkilot va vazirliklar hamda xorijiy institutlar bilan hamkorlik o‘rnatish ko‘zga tutilgan edi, shu jumladan Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Moliya vazirliklariga virtual turlar yaratish bo‘yicha Google Cultural Institute bilan hamkorlik o‘rnatish yuklatilgan edi va o‘z samarasiga erishib kelmoqda. San‘at muzeylarining 3D-sayohatlari, xalqaro ko‘rgazmalar veb-translyatsiyalari, zamonaviy rassomlarning individual veb-saytlari, onlayn-san‘at galereyalari, virtual san‘at va san‘at galereyalari, raqamli san‘at to‘plamlari tashkil etildi va jarayon davom etmoqda. Samarqand muzeylarga virtual tur yorqin misol bo‘la oladi, bunda alohida veb-sahifa yaratilgan bo‘lib, Samarqandagi ko‘plab muzeyning 3D shakli yaratilgan hamda zaruriy ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Yoki, VRmuseum platformasi oladigan bo‘lsak, VRonica kompaniyasi tomonidan tayyorlangan hamda Yoshlar ittifoqi, Madaniyat va Innovatsiyalar vazirliklari ko‘magida amalga oshirilgan, unda Toshkentda joylashgan 29 ta muzeylarning virtual shakli tayyorlangan bo‘lib, 21ta muzey rejalashtirilgan, 4 ta muzeyning ustida esa qayta ishlashmoqda. Bu kabi islohotalar va tashabbuslar nafaqat mahalliy aholining balki xorijiy davlat fuqarolarining davlatimizning shonli va o‘chmas tarixidan boxabr bo‘lishiga yordam beradi.

Jahon muzey sektori onlayn nashri Muzeylar + Heritage Advisor ma'lumotlariga ko‘ra zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar muzeylar uchun oddiy holga aylanib bormoqda hamda moliyaviy mustaqil bo‘lishiga, tashrif buyuruvchilarning sonining oshishiga imkon yaratadi. Bu kabi innovatsiyalarni O‘zbekistonda qo‘llash turistlarning oqimiga va mahalliy aholining qiziqishiga



o‘zining katta ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi. Misol uchun projection mapping (proyeksiyali xaritalash) texnologiyasi orqali xohlagan tasvirni turli xil yuzaga ko‘rsatish mumkin, bu orqali 3D-san‘at illyuziyasini yaratishga yordam beradi va hech qanaqa maxsus yuzani talab etmaydi. Tokiyoning Odaiba shahridagi Raqamli san‘at muzeyida sehrlil orzu dunyosini yaratish uchun priektsion xaritalash texnologiyalardan foydalangan. Bu texnologiya orqali O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan galereyalarda, ko‘rgazmalarda va muzeylarda qo‘llash mumkin, projection mapping bilan tomoshabinga katta ta‘sir qilish mumkin, undagi 3D-san‘at illyuziyasi kuzatuvchiga shu tasvirning bir bo‘lagi yoki ishtrokchisiga beixtiyor aylantirib qo‘yadi.

Keyingi innovatsiya bu binaural texnologiya hisoblanadi, bu qurilma stereo audio bo‘lib, ikki tomonlama mikrofon orqali tovush yozib olinadi. Bundan maqsad esa 3D audio effektini yaratishdir hamda bu kabi audiolar eshituvchiga jonli eshitilayotgandek tuyiladi, ayniqsa quloqchin bilan tinglaganda. Binaural so‘zi “2 ta quloqli bo‘lish” degan ma‘noni bildiradi. Bu qurilma bilan muzey tashrif buyuruvchilarga ko‘rgazmaning bir qismi bo‘lishini his qilishiga yordam beradi. Bundan muzeylar orasidan The Metropolitan Museum of Art, Visitors to Versailles ko‘rgazmasida qo‘llanilgan bo‘lib, tashrif buyuruvchilar minigarnituralardan foydalana olishgan. Natijada esa muzeyda qo‘yilgan biror-bir maxsus ob‘yektning soha mutaxassisi tomonidan an‘anaviy yo‘l orqali tasvirlab berishning o‘rnida bu narsa haqidagi ma‘lumotlarni aktyorlar yozuvchi, quruvchi yoki arxitektor, qirol hamda elchi sifatida aytib berishgan, bu bilan turistlar o‘zlarini o‘sha davrda sayohat qilib yurishgandek tasavvur qilishlariga yordam bergan.

Gologramma displey haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu uch o‘lchamli tasvirni tomoshabinga ko‘rsatish uchun yorug‘lik diffraksiyasidan foydalanadigan 3D displeyning bir turi. Golografik displeylar 3D displeyning boshqa shakllaridan farqi shundaki, ular tomoshabindan tasvirni ko‘rish uchun hech qanday maxsus ko‘zoynak taqish yoki tashqi jihozlardan foydalanishni talab qilmaydi va vergensiya-akkomodatsiya ziddiyatini keltirib chiqarmaydi. Golografik displeylar maxsus joy tanlamaydi, portativligi bilan ajralib turadi. Bu texnologiyadan Los Angelesda joylashgan The Holocaust Museum to‘la qo‘lla olgan. Golografik displeylar orqali turistlarga va mahalliy tashrif buyuruvchilarga eksponat haqidagi ma‘lumotni to‘liq olishi hamda kattalashtirib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, Amir Temurning Oq saroy o‘z holicha saqlanmagan, lekin



golografik displeylar orqali buni yaratish mumkin, muhtasham saroyning to‘liq go‘zalligini, gavdalanirish imkoniyatini beradi. Oxirgi texnologiya VRdir (Virtual reality) Virtual haqiqat - foydalanuvchilarning sezgilari orqali idrok etiladigan voqelikka yaqinlashadigan tarzda foydalanuvchilarga virtual muhitni o‘rganish va ular bilan muloqot qilish imkonini beruvchi simulyatsiya qilingan 3D muhit. Atrof-muhit kompyuter texnikasi va dasturiy ta‘minoti bilan yaratilgan, ammo foydalanuvchilar atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun maxsus bosh kiyim yoki ko‘zoynak kabi qurilmalarni ham kiyishlari kerak bo‘ladi. Foydalanuvchilar VR muhitiga chuqur kirib borishi va o‘zlarining jismoniy muhitini his qilishlari mumkin, ular o‘zlarini o‘rab turgan virtual olamni haqiqiy deb his qilishadi. 2019-yilda Fransiyaning mashhur Luvr muzeyida Leanarda da Vinchining 500 yillik yubileyini o‘tkazish maqsadida “Mona Lisa: Beyond the Glass” uyushtirildi va birinchi VR foydalanishdi. Shuningdek, National Museum of Natural History and The Art Institute of Chicago muzeylari 360 gradusda ko‘rib bo‘ladigan kolleksiyasini yaratdi va bu bilan tashrif buyuruvchilarning sonini oshirishga erishdi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, multimediya ko‘p insonlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, videolar, rasmlar hamda transkriptlar eshitish bilan muammo bor bo‘lgan insonlar foydalanishi va audio kontetlardan esa ko‘zi ojizlarga yordam beradi eksponat yoki biror buyum haqidagi ma‘lumotga ega bo‘lishga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.08.2018 yildagi PQ-3920-son <https://lex.uz/docs/-3882752>
2. **Your Insiders' Guide to STQRY: Mobile Tour Guide Apps and Digital Collections** 2021-yil 11-noyabr <https://stqry.com/blog/insiders-guide-to-stqry/>
3. Top Technology Trends for Museums in 2023, 2022-yil 8-noyabr <https://stqry.com/blog/technology-in-museums/>
4. **How the Pandemic Reshaped Museum Experiences** Damon Brown august 31 2021 <https://www.nutanix.com/theforecastbynutanix/industry/what-is-the-future-of-museums>



5. Google O‘zbekistonga virtual muzeylar yaratishda yordam beradi
<https://kun.uz/uz/69859210#!>
6. <https://vrmuseum.uz/ru/#rec183448579>
7. [8 tech innovations becoming standard in museums and heritage sites -
Museums + Heritage Advisor](#)
8. [20 ta hayratga soluvchi proektsion xaritalash demolari - Ijodiy - 2023
\(lchan.org\)](#)
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Holographic_display



Research Science and
Innovation House

